

## O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA KEYS METODINING AHAMIYATI

**Madina Xolsaidova Sa'dulla qizi**

Termiz iqtisodiyoti va Service Universitet  
xorijiy til va adabiyot magistranti

### **Annotatsiya:**

So‘ngi yillarda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlardan biri, “Keys” metodining ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Chet tili, metod, “Keys-stadi”, muammoli-vaziyatli tahlil, axborot-kommunikatsiya,

### **KIRISH**

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta’limda erishilgan yutuqlarni amaliyatga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo‘lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o‘qituvchilar va bo‘lg‘usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o‘zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalgalashmoqda [1-4]. Pedagogning mavqeyi ilg‘or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o‘rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahmiyatlidir. Ta’lim beruvchi yangi ilg‘or pedagogik tajribani amaliyatga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e’tibor berishi kerak. O‘qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo‘nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyatga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Muammoli ta’lim – o‘quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalgalashmoqda oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Bizga yaxshi ma’lumki, ta’lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rnini beqiyosdir.

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat: - Ijtimoiy - Konstruktiv - Badiiy ifodaviy - Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridir. Muammoli ta’limning bosh maqsadi – talabalarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llash asosiy masalalardan biri

o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak. Shunday muammoli texnologiyalardan biri - “Keys-stadi”dir.

Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so‘zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – o‘rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug‘ullanish, o‘quv fani, saboq olish, o‘qish ma’nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, ya’ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko‘ra keys – real hayotning «bir parchasidir». Shunga ko‘ra bu metodni “amaliy holatlarni o‘qitish metodi” deb ham ataladi. Keys-stadi - ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minkaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir. Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi: sizga muammoni hal etish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo‘srimcha ma’lumotni yig‘ish, tahminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

## METODLAR

Keys-stadi metodi bo‘yicha o‘rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig‘indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidagi dolzarb bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shu sababli G‘arb mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida keys-stadi metodidan, ya’ni keyslardan foydalanish o‘quv rejasining 25 % ini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalarida hayotiy vaziyatdan foydalanishning ahamiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Keys-stadi ta’lim metodini turli holatlarni o‘rganishda qo‘llash – hayotdan olingan odadagi vaziyatlarni o‘rganishni tashkil etish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta’lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta’lim jarayonidan iborat.

## NATIJALAR

Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo‘srimcha axborotlarni yig‘ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo‘yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini

beradi. Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag‘ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog‘laydi. Keysni ko‘rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o‘zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta’lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo‘llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi.

### MUNOZARA

Keys-stadi ta’lim metodiga doir ayrim asosiy tushunchalar ta’rifi:

“Keys” va “keys-stadi” tushunchalarining ma’no-mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, shunga ko‘ra quyida ularning asosiy xususiyatlarini to‘liqroq aks ettirish maqsadida ko‘p variantli ta’riflari berildi.

Keys –

1) ta’lim oluvchilarning ma’lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo‘yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan hamda muammoni ifodalash uchun, uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to‘plami;

2) belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo‘sishma axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o‘quv-uslubiy materiallar yig‘indisi;

3) muammoni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari na xulosalar.

Keys-stadi –

1) ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim metodidir.

2) ta’lim, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv na boshqa sohalarni o‘rgatishda qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan (bashorat qilinadigan) o‘quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta’minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Andreevskaia-Levenstern JI. C. Methods of teaching French in secondary school: Textbook. - M.: Education, 1973. - 222 p.
2. Qambarova Dilorom Yusupovna. (2022). ON THE METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. American Journal Of Philological Sciences, 2(10), 12–17.

3. Babinskaya P. K., Leontyeva T. P., Andreasyan I. M., Budko A. F., Chepak I. V. A practical course in the methodology of teaching foreign languages: A textbook ... . - Ed. 5th. — M.: Tetra System, 2009. — 288 p.
4. Bim I. L. Methods of teaching foreign languages as a science and theory of a school textbook. - M.: Russian language, 1977. - 288 p ..
5. Vereshchagina I. N., Rogova G. V., Yazykova N. V. Methods of teaching English: grades 1-4: A manual for teachers and students of pedagogical universities. - 4th ed. - M.: Education, 2008. - 223 p.
6. Dzhalalov D. D. Problems of the content of teaching a foreign language. - T.: Fan, 1987. - 110 p.